

Po'lat o'tda toblanadi, odam – mehnatda

# Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2023-yil 26-dekabr № 12 (1534)  
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda



## BUGUNGI SONDA

### BUGUNNING NAFASI

Yillik reja bajarildi 2

### FAXRIMIZ

Vatan himoyasi  
sharafli burch! 3

### SOLNOMA

Kombinatda 2023-yilning  
e'tiborli voqealari 4 – 5

### E'ZOZ VA QADR

Muruvvat  
dilni poklaydi 6

### KORRUPSIYA

Davlat va jamiyat  
taraqqiyotiga tahdid 7

### BOR GAP

Ma'naviyat  
nimaga kerak? 8

### SO'RAGAN EDINGIZ

Yaroqsiz mahsulot  
tayyorlanganda ishchiga  
haq beriladimi? 9

### SPORT

Mavsum yakunlandi 11

### TAFAKKUR

Tabassum qiling! 12

## KIRIB KELAYOTGAN YANGI YIL MUBORAK!

### Hurmatli metallurglar, ishlab chiqarish faxriylari, qadri bekobodliklar!

“O'zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi nomidan va shaxsan o'z nomimdan Sizlarni kirib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan chin qalbidan tabriklab, sidqidildan qilayotgan mehnatingiz uchun samimiy minnatdorchiligimni bildiramani!

Yangi yil arafasida o'tayotgan yilga nazar tashlash, uning natijalarini sarhisob qilish, amalga oshirgan ishlarimizga baho berish an'anaga aylangan.

Korxonada ishlab chiqarish hajmini oshirish barobarida investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsiya va ilg'or texnologiyalarni amaliyotga samarali tatbiq etish kabi keng ko'lamli vazifalar amalga oshirildi.

Biz Quyuv-prokatlash majmuasini bunyod etishdek yirik investitsiya loyihasini amalga oshirmoqdamiz. Bu loyihaga asosan yiliga 1,04 million tonna po'lat list ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bu majmua ishga tushganidan so'ng kombinatning ishlab chiqarish quvvati ikki barobarga ortadi.

O'zbekiston metallurgiyasini strategik rivojlantirish doirasida biz “DANIELI & C.Officine Meccaniche” AJ bilan o'zaro anglashuv memorandumini imzoladik. Bu esa yaqin kelajakda O'zbekistonni po'lat listlarni import qiluvchidan ularni eksport qiluvchiga aylantirish imkonini beradi.

Shuningdek, kombinat DIN 488-1, DIN 488-2, DIN 488-6 standarti talablariga muvofiqligi uchun Navli prokat sexi mahsulotlari (betonni mustahkamlash uchun po'lat armaturalar)ni sertifikatlash bo'yicha Germaniyaning “MFPA Leipzig GmbH” sertifikatlash organi bilan shartnoma tuzdi.

Sertifikatlash auditi va sinovlari natijalariga ko'ra 2023-yil 21-iyulda kombinatga betonlarni mustahkamlash uchun tayyorlangan 10-32 mm. diametrli B500B sinfidagi po'lat armaturalarga Germaniya standarti bo'lgan DIN 488-1, DIN 488-2, DIN 488-6 talablariga muvofiqligi uchun UZ 1.2/23-

019/23-425-0-sonli sertifikat berildi.

Sertifikatlar kombinat tomonidan iste'molchilar xalqaro talablarga javob beradigan mahsulotlar bilan ta'minlanayotganligining yorqin dalilidir.

Mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, ko'p yillik samarali mehnati, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish, hududlar infratuzilmasini jadal rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun metallurglarimiz 2023-yilda Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandi. Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida Navli prokat sexi metall saralovchisi Marhabo Arziyeva “Mehnat shuhrati” ordeni, Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sexining sirlovchisi Mavjuda Matmurodova “Mo'tabar ayol” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Mamlakatimiz Mustaqilligi bayrami arafasida esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan Elektrda po'lat eritish sexi po'lat erituvchisi Abdurahmon Turdimurotov “Do'stlik” ordeni bilan mukofotlandi.

Yangi yil arafasida barcha hamkorlarimiz va mahsulotimiz iste'molchilariga kombinatimiz bilan birgalikdagi samarali faoliyatlari uchun minnatdorchilik bildiramani.

### Hurmatli metallurglar!

O'z vazifalaringizga mas'uliyat bilan yondoshib, sidqidildan qilayotgan mehnatingiz uchun rahmat. Yangi yilda barchangizga mehnat zafarlari, oilaviy baxt, sog'lik yor bo'lishini, farovonlik tilayman. Biz rahbar va ish beruvchilar xavfsiz mehnat sharoitlarida, yaxshi kayfiyatda ishlashingiz uchun barcha sharoitlarni yaratib beramiz.

Yangi 2024-yilda barcha ezgu orzu va rejalarangiz ro'yobga chiqsin! Yangi yil baxtli, omadli kelsin!

Kelayotgan Yangi yilingiz muborak bo'lsin!

**Rashid PIRMATOV,**  
“O'zmetkombinat” AJ  
Boshqaruvi raisi – bosh direktor.



## BIRINCHI BO'LIB YILLIK REJANI BAJARISHDI

**Rangli metallar ishlab chiqarish sexi jamoasi yillik rejani barvaqt bajarib, yangi yilni yaxshi kayfiyatda kutib olmoqda. Bor imkoniyatlardan samarali foydalanish, jamoaning ahilligi va barchaning birdek sidqidildan mehnat qilishi muvaffaqiyatlar omili bo'layotir.**

Ular jahon andozasi talablariga mos keladigan mahsulotlari bilan respublika iste'molchilari ehtiyojini qondirib, chet davlatlarga ham eksport qilayaptilar.

Bu yil sexda 2800 tonna rangli metall mahsulotlari ishlab chiqarish rejalashtirilgan edi. Ahil jamoa 14 dekabrdayoq bu rejani ziyodi bilan ado etdi. Shu kun xolatiga sexda 1653 tonna mis va uning qotishmalaridan folga, tasma, tilim ishlab chiqarildi. 1243 tonna latun tayyorlandi.

Kombinatda birinchilardan bo'lib yillik rejani bajargan rangli metall ishlab chiqaruvchilar tayyorlayotgan mahsulotlarning aksariyati eksportga jo'natiladi. Bu sex mahsulotlarining yuqori sifatidan darak beradi.

Jamoda har doimgidek mahsulot tayyorlash hajmini ko'paytirish, uning tannarxini kamaytirish, sifatini yaxshilash va pirovard natijada raqobat bardoshligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Diyor ILHOMOV.**

## PROKATCHILARNING HISSALARI KATTA

**Kombinatning iqtisodiy taraqqiyoti Navli prokat va Zoldir prokat sexlarining faoliyatlariga ko'p jihatdan bog'liq. Bu yil ikkala sexda ham ishlab chiqarishda ko'ngildagidek natijalarga erishilmoqda.**

Navli prokat sexida belgilangan rejalar muntazam ravishda bajarilayapti. Joriy yilning o'n bir oyida sex jamoasi 627 ming tonna o'rniga amalda 649 ming tonna navli prokat mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib berdi.

Zoldir prokat sexida esa o'n bir oyda 226 ming o'rniga 231 ming tonna mahsulotlar tayyorlandi. Bu mahsulotlarning 224 ming tonnasini po'lat zoldirlar tashkil etdi.



Rejalarini oshig'i bilan ado etib kelayotgan bu prokatchilar jamoalari yillik rejani ham sharaf bilan bajaradilar.

Prokatchilar ishlab chiqarayotgan raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan sifatli mahsulotlari bilan nafaqat kombinat, balki mamlakat taraqqiyotiga ham munosib hissalarini qo'shib kelayaptilar.



## ENERGETIKLAR BARQAROR ISHLAMOQDALAR

**Ma'lumki, 22-dekabr eng qisqa kunduz va eng uzun tun bo'ladigan sana. Bu sanada sayoramizning Bosh energetigi - Quyoshdan bizga eng kam yorug'lik va issiqlik tushadi. Energiya iste'moli eng ko'p bo'ladigan ushbu kunda bir qator mamlakatlar qatorida O'zbekistonda ham energetika sohasi xodimlari kasb bayramini nishonlashdi.**

Energetika sohasi jamiyat hayotida qanday katta ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlashga hojat yo'q. Uylarimizga issiqlik va yorug'lik ulashadigan, ishlab chiqarish korxonalarida uskuna va dastgohlarni harakatga keltiradigan va umuman zamonaviy hayotning barcha-barcha sohasida asosiy o'rin tutadigan jabha, shubhasiz, energetikadir.

"O'zmetkombinat" AJ O'zbekiston Respublikasining yirik korxonalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish uchun katta miqdorda elektr energiyasi va tabiiy gaz sarflaydi.

Kombinat mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim omillaridan biri ishlab chiqarish tannarxini, jumladan, tayyorlanayotgan mahsulotlarning

energiya sarfini kamaytirish hisoblanadi.

Bu borada aksariyati yuqori malakali, mas'uliyatni yaxshi anglaydigan, intizomli va o'z kasbining ustalari bo'lgan kombinatimiz energetiklari tomonidan keng hajmli ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda Bosh energetik xizmati boshchiligida kombinatimizda bir qator tarkibiy bo'linmalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular - Energetika, Kislorod-kompressor, Elektr uskunalarini ta'mirlash, Elektr tarmoqlari va podstansiyalar, Energetika tarmoqlarini ta'mirlash sexlari, Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika boshqarmasi, Elektrotexnika hamda Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari laboratoriyala-

ri o'zlarining mas'uliyatli vazifalarini ko'ngildagidek bajarib kelayaptilar. Bu jamoalar "O'zmetkombinat" AJning asosiy sexlari va barcha tarkibiy bo'linmalarining bir maromda uzluksiz ishlashiga munosib hissalarini qo'shayotganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Ushbu tarkibiy bo'linmalar ishchi-xodimlari har oyda belgilangan barcha vazifalarni muvaffaqiyatli bajarib kelmoqdalar. Ular tomonidan kombinat tarkibiy bo'linmalarini elektr energiyasi bilan ta'minlashda ishonchlikni oshirish maqsadida asosiy ishlab chiqarish sexlarida rejali profilaktika va kapital ta'mirlash ishlarini tezkorlik bilan amalga oshirish, yuqori voltli kabel liniyalari xizmat ko'rsatish kabi ishlar o'z vaqtida bajarilmoqda. Bundan tashqari energetiklar bevosita qish mavsumi uchun qozonxonalarni tayyorlash ishlarida ham faol qatnashadilar. Kombinat iste'molchilari tomonidan tabiiy gaz va elektr energiyasidan

oqilona foydalanishni nazorat qilish ham Bosh energetik xizmati mutaxassislarining diqqat markazida.

Kombinatimizda energiya samaradorligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish maqsadida har yili elektr energiyasi va tabiiy gazni tejash bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. 2023-yilning 11 oyi yakunlari bo'yicha kombinatda 17,581 million kVt/soat elektr energiya, 0,653 mln. m<sup>3</sup> tabiiy gaz tejaldi. Bu ko'rsatkichlarga erishish uchun kombinatda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda ham kombinat energetiklari barqaror ishlamoqdalar. Shu bois yilni muvaffaqiyatli yakunlash uchun barcha asoslar bor. Kelgusi yilda energetiklar oldiga bundan ham katta vazifalar qo'yilgan. Ularni hal qilish energetiklardan bor kuch va bilimlarini ishga solishni talab qiladi.

"O'zmetkombinat" AJ tarkibiy bo'linmalarida mehnat qilayotgan 35 yoshdan oshmagan ishchi-xodimlar o'rtasida 3 bosqichdan iborat "Eng zukko metallurg" kasb mahorati bo'yicha tanlov o'tkazildi. Unda 20 nafarga yaqin metallurglar ishtirok etishdi.

Birinchi bosqichda ishtirokchilarning nazariy bilimlari test savollari orqali sinovdan o'tkazildi. Ikkinchi va uchinchi bosqichda ishtirokchilarga metallurgiya va sohaga oid topshiriqlar hamda masalalar berildi. Ularga tanlov qatnashchilari belgilangan vaqt davomida yozma va og'zaki tarzda javob berdilar.

Tanlovning yakuniy natijalari va hakam-

## "ENG ZUKKO METALLURG"



lar hay'atining xulosasiga ko'ra birinchi o'rinni Muhandislik markazi prokat guruhi muhandisi Farhod Mujdabayev egalladi. Ikkinchi o'rinni Muhandislik markazi metallurgiya issiqlik texnikasi va o'tga chidamli materiallar laboratoriyasi muhandisi Adham Temirboyev, uchinchi o'rinni Muhandislik markazi po'lat eritish guruhi muhandisi Ilyos Do'smatov qo'lga kiritishdi.

Tanlov g'olib va sovrindorlari pul mukofotlari bilan taqdirlanishadi. G'olib Farhod Mujdabayev kombinat kadrlar zahirasi tarkibiga kiritildi va unga shtat jadvali doirasida kasb toifasini oshirish imkoniyati berildi.

**Sheroz SHUKURALIYEV.**



## VATAN HIMOYASI SHARAFLI BURCH!

Yurtimizda Vatan himoyasi kabi ulug'vor ishga o'zini bag'ishlagan harbiylarimiz katta hurmat va e'zoz bilan qadrlanib, har yili 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni katta bayram va shodiyona bilan o'tkaziladi.

Bu kabi e'tibor va e'tirof mas'uliyatli kasb egalari Vatan oldidagi xizmatlarini yuqori baholanishini namoyon etib, ularning kelgusidagi faoliyatiga ham kuch-quvvat, shijoat va albatta sadoqat bag'ishlaydi.

O'z hayotini Vatan himoyasidek ulug' ishga bag'ishlagan harbiylarimiz bilan barcha yurtdoshlarimiz haqli ravishda faxrlanadilar. Zero milliy armiyamiz tinchoyishta hayot, mamlakatimiz xavfsizligi va sarhadlarimiz daxlsizligining mustahkam qalqonidir. Mana shunday mas'uliyatli burchni sidqidildan ado etayotgan, taraqqiyotimiz barqarorligiga kamarbasta bo'layotgan harbiylarni har qancha ardoqlasak arziydi.

Harbiy xizmat yoshlarda mus-

tahkam iroda va xarakterni shakllantiradigan, jismoniy chiniqish va yuksak insoniy fazilatlar kamol topadigan o'ziga xos maktabga aylandi. Armiyada xizmat qilish O'zbekiston fuqarosi uchun nafaqat konstitutsiyaviy burch, balki eng nufuzli kasblardan biriga aylandi. Yoshlar orasida harbiy xizmatga qiziqish tobora ortib borayotir.

Muddatli harbiy xizmatga tanlov asosida qabul qilinayotgani armiya

saflarini jismoniy tayyorgarligi va intellektual salohiyati yuksak yigitlar bilan to'ldirishda muhim omil bo'lmoqda. Buning samarasida askarlar jangovar tayyorgarlik dasturlarini, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanishni puxta o'zlashtirishmoqda.

Bugungi kunda milliy armiyamiz ming-minglab o'g'lonlarimiz uchun chinakam mardlik, fidoyilik, haqiqiy vatanparvarlik maktabiga aylandi.

Endilikda onalar o'z farzandlarini armiyaga ko'zda yosh, yurakda xavotir bilan emas, balki mening o'g'lim haqiqiy Vatan himoyachisi bo'ladi, deb, yuksak ishonch va faxr tuyg'usi bilan kuzatmoqda.

Jannatmakon diyorumizda tinchlikni ta'minlab kelayotgan harbiy xizmatchilarni kelayotgan Vatan himoyachilari bayrami bilan muborakbod etamiz. Bu bayram bilan nafaqat harbiylarni, balki O'zbekistonning manfaatlari, uning farovonligi yo'lida butun borlig'i, bilimi, salohiyati va kuch-quvvatini, kerak bo'lsa, jonini fido qilishga tayyor bo'lgan barcha vatanparvar yurtdoshlarimizni, siz aziz metallurglarni ham chin dildan tabriklaymiz.

Barchangizga jonajon Vatanimiz – O'zbekistonning, xonadoningiz va oilangizning haqiqiy himoyachisi bo'lishingizni tilaymiz. Sizlarga sihat-salomatlik, baxt, tinchlik va farovonlik hamisha yor bo'lsin!

**Sardor BOBOYEV.**



**Qora metall parchalari va chiqindilari – metallurgiya sanoati uchun asosiy xomashyo bazasi hisoblanadi. Shu sababli qora metall parchalarini yig'ish katta ahamiyatga ega. "O'zmetkombinat" AJning qora metall chiqindilarini tayyorlovchi va yetkazib beruvchi "Ikkilamchiqorametallar" departamenti zimmasiga yuklangan bu mas'uliyatli vazifani bajarib kelmoqda.**

### KATTA AHAMIYATGA EGA

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda "O'zmetkombinat" AJning 13 ta filiali, 37 uchashtasi mavjud. Ularning sa'y-harakatlari evaziga yil davomida ham kombinatga qora metall chiqindilarini yetkazib berishda uzilishlar bo'lmadi.

Filiallar tomonidan korxonalar va tashkilotlar, shuningdek aholidan qabul qilingan qora metall parchalari va chiqindilari qayta ishlanib kombinatimizga yuboriladi. Har yili filiallardan kombinatga o'rtacha hisobda 700 ming tonna miqdorida qora metall parchalari va chiqindilari yetkazib berilmoqda. Filiallarining mana shunday fidokorona mehnati evaziga kombinatning ishlab chiqarish jarayoni bir maromda ketmoqda.

Filiallarining moddiy texnik bazasini yaxshilash, zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash maqsadida modernizatsiya dasturi asosida har yili turli texnika va uskunalar sotib olinmoqda. Bularga so'nggi yillarda xarid qilingan press uskunalar, yuklovchi transportlar elektron avto va temir yo'l tarozilarini misol qilish mumkin.

Shu bilan birga ma'lumotlar almashinuvida tezkorlikni ta'minlash, tegishli nazoratni amalga oshirish va ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni o'z vaqtida yechimini topish uchun filiallar yagona tarmoq orqali kombinatda foydalaniladigan "1S" dasturiga integratsiya qilingan.

Shu bilan bir qatorda mavjud uskuna va texnikalar sozligini ta'minlash va ulardan oqilona foydalanish maqsadida kombinatning Temir yo'l sexida, Bosh mexanik va Bosh energetik xizmatlarida mobil guruhlar tashkil etilgan. Ushbu guruhlar tomonidan belgilangan reja-jadval asosida ta'mirlash ishlari amalga oshirib kelinmoqda.



### SIFAT VA SAMARADORLIK OSHMOQDA

Metall konstruksiyalari sexida kombinatning tarkibiy bo'linmalari va ijtimoiy tarmoqlarning buyurtmalari asosida ish olib boriladi. Bu joyda metall konstruksiyalar, to'sin va temir ustunlar, narvon-zinapoyalar, turli xil panjara to'sinlar, eshik va derazalar, deraza panjaralari, elektr dvigatel hamda generatorlarga taglik moslamalar, o'rindiqlar, asosiy sexlar uchun qozonxonalar, ular uchun ehtiyot qismlar va moslamalar tayyorlanadi.

O'tgan yildan boshlab jamoa Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi loyihasi doirasida yangi qurilayotgan sex uchun kolonnalar, kranosti balkalari va boshqa bog'lovchi metallokonstruksiyalar ishlab chiqarmoqda.

Oxirgi ikki yilda sex Xitoy, Italiya,

Chexiya kabi xorij davlatlarining zamonaviy asbob-uskunalarini bilan yangilandi. Gidravlik gilyotin qaychi, 9 valokli list tekislovchi, gorizontalliy yo'nuvchi, po'lat listlarni qayta ishlovchi va lazerda kesish dastgohlari, T va N shakldagi balkalarni yig'ish va to'g'rilash uchun ishlatiladigan stanok sexning yanada samarali ishlashida muhim omil bo'lmoqda.

Bundan tashqari payvandlash uskunalarini ham yangilanmoqda. Suvli sovutish bilan "TAYOR NB-630T" yarim avtomatik payvandlash mashinasi, havo kompressorli "LGK-100B" yarim avtomatik payvandlash mashinasi va boshqalar tayyorlanayotgan mahsulotlar sifati va samaradorligini oshirmoqda.

**Karim BOHODIROV.**

### SANOAT KOOPERATSIYASI YANADA KENGAYTIRILADI

Joriy yilning 12-15-dekabr kunlari Milliy ko'rgazma majmuasi "O'zeksportmarkaz"ning barcha pavilonlarida Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi bo'lib o'tdi. Ushbu yarmarkada respublikaning yirik sanoat tashkilotlari bilan mahalliy sanoat korxonalarini o'rtasida ishlab chiqarish kooperatsiyasini yanada kengaytirishga qaratilgan.

Yarmarkada "O'zmetkombinat" AJ ham o'z mahsulotlari ko'rgazmasi bilan ishtirok etdi.

Respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkasi doirasida "Kooperatsion aloqalarni rivojlantirish istiqbollari" va "Respublikada o'xshashi mavjud bo'lmagan mahsulotlarni

ishlab chiqarish imkoniyatlari" mavzularida taqdimotlar o'tkazildi. Mazkur yarmarkada import bo'yicha yirik tarmoq korxonalarini tomonidan xarid qilingan import o'rnini bosuvchi mahsulotlarning namoyishi tashkil etildi.

**Salim SHAVKATOV.**





# 2023-YILNING E'TIBORLI VOQEALARI

## EHTIROM

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi farmoni bilan davlat va jamiyat hayotida faol bo'lgan bir guruh ayollar mukofotlandi.

Mukofotlanganlar orasida kombinatimizda mehnat qilayotgan ayollarning ham borligi biz uchun yanada quvonarlidir.

Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami arafasida Navli prokat sexi metall saralovchisi Marhabo Arziyeva "Mehnat shuhrati" ordeni, Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sexining sirlovchisi Mavjuda Matmurodova "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



## "IKKI YULDUZ" MAQOMI BERILDI

Navro'z bayrami kunlarida va Ramazon oyi arafasida Osiyo Futbol Konfederatsiyasining maxsus komissiyasi "El Golazo Academy Powered by Real Madrid" bolalar va o'smirlar futbol akademiyasini "ikki yulduz" maqomi bilan taqdirladi.

Bunday maqom nafaqat faxr, balki ayni paytda ulkan mas'uliyatdir. Endilikda klub akademiyasi OFKdagi mashhur akademiyalarga tenglashtirilgan: xususan, Yaponiyaning "Fukusima" klubi va Janubiy Koreyaning "Seul" klublari OFKda mana shunday maqomga ega.

Taqqoslash uchun, UEFAda "Bavariya" va "Yuventus" ikki yulduzli maqomga ega. Eng yuqori – "Uch yulduz" maqomi esa dunyoning bir necha akademiyalariga, jumladan, Gollandiyaning "Ayaks", Portugaliyaning "Portu", Ispaniyaning "Barselona"ga berilgan. Osiyoda esa faqat Qatardagi "Espayr" akademiyasi bugungi kunda butun dunyoga tanilgan, shunday maqomga ega.



## YANGI JAMOA SHARTNOMASI QABUL QILINDI

Metallurglar madaniyat saroyida "O'zmetkombinat" AJning 2022-yilda jamoa shartnomasi va shartnoma ilovalarining bajarilishi hamda 2023 – 2025-yillarga mo'ljallangan yangi jamoa shartnomasini qabul qilish bo'yicha mehnat jamoasining konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Konferensiyada "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoasining 2022-yilda jamoa shartnomasi va shartnoma ilovalarining bajarilishi qoniqarli deb baholandi va 2023 – 2025-yillarga mo'ljallangan Yangi jamoa shartnomasi to'g'risidagi qaror loyihasi qatnashchilar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi.

## AKSIYADORLARNING YILLIK UMUMIY YIG'ILISHIDA

Metallurglar madaniyat saroyida "O'zmetkombinat" AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda kun tartibiga qo'yilgan bir qator masalalar ko'rib chiqildi. Jumladan, "O'zmetkombinat" AJ Ijroiya organining 2022-yil yakunlari bo'yicha hisoboti ko'rib chiqildi. Biznes-reja bajarilishi to'g'risidagi hisoboti tasdiqlandi. 2022-yil moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari bo'yicha yillik hisobot tasdiqlandi.

Shuningdek, "O'zmetkombinat" AJning yangi tahrirdagi ustavi hamda yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. "O'zmetkombinat" AJ Taftish komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. 2022-yil yakunlari bo'yicha korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari ko'rib chiqildi. Shu bilan bir qatorda, "O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi to'g'risida"gi nizom yangi tahrirda tasdiqlandi.

## SHARAFLI YO'L

1942-yil dekabr oyida O'zbekiston metallurgiya zavodining dastlabki yordamchi sexi poydevorini qurish boshlandi. Oradan 2 oy o'tib 1943-yilning fevralida marten, martda prokat sexlarining poydevorlariga birinchi kubometr beton quyildi. Aprel oyida – olovli, suronli yillarda "За металл" va "Metall uchun" gazetasining birinchi soni nashrdan chiqdi.

Shu yil 27-aprel kuni Bekobod shahrining "Otaxon" gazetasi nashr etila boshlaganligiga 80 yil to'ldi.



## MEMORANDUM IMZOLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Germaniya Federal Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning taklifiga binoan joriy yil 2-3-may kunlari tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

Tashrif doirasida O'zbekiston va Germaniya o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi, amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari belgilab olindi.

O'zaro manfaatli hamkorlik uchrashuvlari doirasida "O'zmetkombinat" AJ va "M7 METALS" o'rtasida metall prokatini sotish va metall mahsulotlari eskporti bo'yicha shartnomalar tuzish maqsadida memorandum imzolandi.



## LOYIHALAR AMALGA OSHMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" Farmoni hamda "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ularni amalga oshirish uchun joriy yilda kombinatimizda umumiy qiymati 6,41 milliard so'm bo'lgan 9 ta loyiha bo'yicha Innovatsion rivojlanish strategiyasi rejalashtirilgan edi.

Joriy yilning oktabr holatiga ko'ra mana shu loyihalarning yettitasi amalga oshirildi, ikkitasi yakunlanish bosqichida.

## "ENG YAXSHI YOSH TOKAR"

Kombinatda "Eng yaxshi yosh tokar" kasb-hunar ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Tanlovda Ta'mirlash-mexanika sexi ishchisi Hasan Zoirqulov g'olib chiqdi. Ikkinchi o'rin Mexanika sexidan Islomjon Yo'ldoshevga, uchinchi o'rin Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sexidan Rahmonberdi Vahobovga nasib etdi. G'olib va sovrindorlar diplomlar hamda pul mukofotlari bilan taqdirlandilar.



# 2023-YILNING E'TIBORLI VOQEALARI



## ULARNI VATAN TAQDIRLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko'ra Mustaqillikning o'ttiz ikki yilligi munosabati bilan bir guruh davlat xizmatchilari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalar xodimlari mukofotlandi. Ushbu Farmonga binoan mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlash, barcha sohalarda islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish borasidagi ko'p yillik samarali mehnati, yurtimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini ta'minlash, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, ilg'or innovatsion texnologiyalarni joriy etish, hududlar infratuzilmasini jadal rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlanganlar orasida "O'zmetkombinat" AJ vakillari ham bor.

"O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi raisi – bosh direktori Rashid Pirmatov "Mehnat shuhrati" ordeni va Elektrda po'lat eritish sexi po'lat erituvchisi Abdurahmon Turdimurotov "Do'stlik" ordeni bilan mukofotlandi.

## VAKILLARIMIZ G'OLIB

O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Toshkent viloyati Kengashida "Mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish" Respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbirda kombinat mehnat muhofazasi bo'limi boshlig'i Gulmira Toshmatova "Eng yaxshi mehnat muhofazasi yosh mutaxassisi" nominatsiyasi bo'yicha hamda "Eng yaxshi mehnat muhofazasi vakili" nominatsiyasi bo'yicha ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'limi muhandisi Ulug'bek Nasriddinovlar 1-o'rinni egallashdi. Ular tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

## EKSPORT IMKONIYATLARI NAMOIYISH ETILDI

Chexiya Respublikasining Brno shahrida 1959-yildan buyon o'tkazilib kelinayotgan "MSV 2023" xalqaro sanoat ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. 43 davlatdan 1260 ta kompaniya ishtirok etgan ko'rgazmada O'zbekiston delegatsiyasi alohida stand bilan ilk bor qatnashdi. "Made in Uzbekistan" milliy standida metallurgiya, avtomobilsozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish borasidagi namunalarni namoyish etildi.

Ushbu xalqaro ko'rgazmada "O'zmetkombinat" AJda ishlab chiqarilgan sirlangan po'lat idishlar, navli va zoldir prokat mahsulotlari, issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar, rangli metallar hamda ferroqotishmalar ishtirokchilar e'tiboriga havola etildi.



## "ENG FAOL YOSH ELEKTROMONTYOR"

"O'zmetkombinat" AJda "Eng faol yosh elektromontyor" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

Ushbu tanlovda kombinatimizning bir qator tarkibiy bo'linmalaridan 20 nafardan ziyod elektromontyor kasbida mehnat qilayotgan yoshlar ishtirok etishdi.

Ko'rik-tanlovning yakuniy natijalarga ko'ra 1-o'rinni Navli prokat sexidan Abdusalol Meliyev egalladi. 2-o'rinni Navli prokat sexidan Azamat Abdurahobov, 3-o'rinni kombinat markaziy laboratoriyasidan Javohir Sotiboldiyevlar qo'lga kiritdi.

## "YASHIL MAKON" BARPO ETILMOQDA



"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "O'zmetkombinat" AJda ham ishlar qizg'in ketmoqda. Bu loyiha doirasida 2023-yil "Kuzgi daraxt ekish mavsumi"da 200 ming tup manzarali, mevali daraxt va buta ko'chatlarini ekish choralari ko'rilgan. Terak, shuningdek, oleandr, burama majnuntol, majnuntol, qoratal, pavlovniya, katalpa, sada, xilokatalpa, vodiy nilufari kabi ko'chatlar hamda tez o'suvchi yovvoyi uzum ko'chatlari ekilmoqda.

Joriy yilning 31-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi.

O'zbekistondagi 2 mingdan ortiq sanoat korxonalarida joriy yil 1-sentabrdan boshlab 3 yil davomida o'z hududi va atrofida "yashil belbog"lar tashkil etishi kerak. Bu dastur doirasida respublika bo'yicha 2023-yilda 2111 gektar maydon bog'ga aylantirilishi kerak.

Ushbu farmon asosida "O'zmetkombinat" AJ hududlarida "yashil belbog"lar tashkil etilmoqda.

## "METALLURG - U19" MAMLAKAT CHEMPIONI



Ikki yil muqaddam "Metallurg" futbol klubi qoshida ochilgan "El Golazo" futbol akademiyasining birinchi qaldirg'ochlaridan iborat "Metallurg - U19" jamoasi mamlakat chempioni bo'ldi.

25 ta jamoa ishtirok etgan U19 chempionatida "Metallurg" yoshlari 24 ta uchrashuvning 18 tasida g'alaba qozonishdi. 2 ta o'yinda durang qayd etishdi. 4 ta uchrashuvda imkoniyatni boy berishdi. Raqiblar darvozasiga 70 ta gol kiritgan holda o'z darvozalaridan 35 ta to'p olib chiqishdi. 56 ochko jang'argan bekobodliklar eng yaqin ta'qibchilari – "Nasaf" hamda "Mash'al" akademiyasi tarbiyalanuvchilarini bir ochkoga ortda qoldirishga muvaffaq bo'lishdi.

## OLIY LIGANI TARK ETDI

"Metallurg - W" ayollar futbol jamoasi bu mavsum oliy ligada juda yomon ko'rsatkichni qayd etdi. Jamoa musobaqa jadvalida so'nggi o'rindan joy oldi. 22 o'yinning barchasida mag'lubiyatga uchradi. Bu o'yinlarda raqib darvozasiga 2 ta to'p kiritilib, o'z darvozasidan 192 ta to'p o'tkazib yuborildi. "Metallurg - W" kuchlilar safini tark etib birinchi ligaga ravona bo'ldi.



Ezgulik, mehr-muruvvat, odamiylik va oqibat kabi xislatlar o'zbek xalqining tomiri, qon-qonida jo'sh uradigan fazilatlar dandir. Xalqimizda "Muruvvat dilni poklaydi" degan purma'no hikmat bor. Oramizda shundaylar borki, ulardagi insoniy fazilatlar tufayli ham bu dunyoda quyosh tafti haroratli, hayot mazmunli va turmushimiz chiroylidir.

## MURUVVAT DILNI POKLAYDI

Yurtimizda ham nogironligi bo'lgan insonlarning manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyatimizning to'laqonli a'zosi ekanliklarini ko'rsatish maqsadida turli tadbirlar amalga oshirilmogda. Mamlakatimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Bu jarayonda barcha fuqarolarimiz kabi nogironligi bo'lgan yurtdoshlarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Darhaqiqat, dinimizda ham imkoniyati cheklangan insonlarga, muhtojlarga moddiy-ma'naviy yordam qo'lini cho'zishga doimo targ'ib etiladi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bir hadislarida: "Alloh taolaga farzlardan keyingi eng sevimli amal musulmonning qalbiga xursandlik kirgizishdir", deganlar.

Imkoniyati cheklangan, moddiy va ma'naviy ozuqaga muhtoj bo'lgan insonlarning qalblariga xursandchilik kirgizish orqali shunday insonlarning siniq ko'ngillarini ko'tarib, dillariga mamnunlik ulashish har bir vijdonli inson uchun huzurbaxsh amallardan hisoblanadi. Mehr-muruvvatli va bag'rikeng xalqimiz azal-azaldan yordamga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishni jamiyatda tinchlik, do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan eng muhim qadriyatlardan biri sifatida e'zozlab keladi.

Islom hidoyatida tarbiya ko'rgan va uning sof va pok buloqlaridan bahra olib ulg'aygan musulmon kishisi o'zi yashab



turgan jamiyatdagi barcha insonlarga naf keltirishga, ulardan zararni daf qilishga sa'y-harakat qiladi. Chunki, u haqiqat, yaxshilik, fazilat kabi odob-axloq asosida tarbiya olgan. Zotan, har bir kunini, yoinki har bir soniyasini o'zgarlar korini oson qilishga, o'ksiklarning ko'nglini ko'tarishga baxshida etadigan insonlar chinakam fidoyilardir. Insonlar xizmatida bo'lish, ularga imkon qadar yordam qo'lini cho'zish va hojatlarni ravon qilishda doimo sa'y-harakatda bo'lish - ulkan saodat. Insonlarga yaxshilik qilish uni ikki dunyo saodatiga olib kelishini yaxshi angelaydi. Alloh taolo Qur'oni karimda aytadi: "Ey, yimon keltirganlar! Ruku' qilingiz, sajda qilingiz va Rabbingizga ibodat qilib ezgu ish qilingiz - shoyadki, najot topsangiz!". Musulmon kishi ushbu oyati karima mazmunidan kelib chiqib o'zgalarga yaxshilik qilishga as-toydil harakat qiladi. Chunki, u yaxshilik yo'lida qo'yilgan har bir qadam uchun Allohdan ulug' ajrlar bo'lishiga qat'iy ishonadi.

Alloh taolo barchamizga sihat-salomatlik, tinchlik-xotirjamlik, oilaviy baxt-saodat ato qilsin.

**Ergashboy HAMIDOV,**  
**Bekobod shahar**  
**bosh imom xatibi.**

## KEKSALARI E'ZOZ TOPGAN YURT

Inson qadri har narsadan ulug'. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlislohotlar, olamshumul o'zgarishlar zamirida ana shu ezgu maqsad mujassam. Keksalarni e'zozlash, qadrlash ularga hurmat-e'tibor ko'rsatish xalqimizga xos azaliy qadriyatlardan biridir. Yurtimizda keksalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga g'amxo'rlik qilish bo'yicha qator tadbirlar amalga oshirilmogda.



Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar kengashining tashkil etilishi ham keksalarga g'amxo'rlikning yana bir yorqin ko'rinishidir. Ushbu Kengashning faxriylarning sog'liklarini mustahkamlash, ularga ijtimoiy tomondan yordam ko'rsatish, keksalar orasida turli tadbirlar tashkil etishdagi faoliyatlari ko'p tahsinlarga sazovor bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan ham Kengash tomonidan yana bir tadbir o'tkazildi. Metallurglar madaniyat saroyida Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar kengashi Bekobod shahar hududiy filialining bir guruh faxriylari ishtirokida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Davra suhbatida Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar kengashi raisi Aleksandr Farmonov, "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi - Bosh direktor Rashid Pirmatov, Faxriylar kengashining Bekobod shahar hududiy filiali raisi Ilhom Qurbonovlar so'zga chiqishdi.

Tadbirda Faxriylar kengashining Bekobod shahar hududiy filialida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi komissiya raisi Odina Rahimova joriy yilning o'tgan 11 oyi mobaynida

komissiya a'zolarining faoliyati haqida ma'lumot berdi.

Samimiy va ko'tarinki ruhda bo'lib o'tgan davra suhbatida kombinat Temir-tersaklarni qayta ishlash sexida presslovchi vazifasida uzoq yillar mobaynida fidokorona ishlagan "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi Tamara Pardayeva hamda Elektrda po'lat eritish sexida po'lat quyuvchi vazifasida mehnat qilgan "Shuhrat" medali sohibi, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" Abdusamad Ro'ziqulovlar Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylar kengashi tomonidan "Faol faxriy" ko'krak nishoni hamda pul mukofoti bilan taqdirlanishdi.

Shuningdek, Qurilish-montaj bo'linmasida 30 yildan ortiq g'isht teruvchi vazifasida sidqidildan mehnat qilgan Bozorboy Boboyevga 63 yoshga kirganli munosabati bilan "Tashakkurnoma" va esdalik sovg'asi taqdim etildi.

Mamlakatimizda keksalarni har tomonlama rag'batlantirishga doir amalga oshirilayotgan bu kabi chora-tadbirlar nafaqat moddiy, balki katta ma'naviy-ruhiy madaddir. Keksalari e'zozlangan, qadr topgan yurtdan qut-baraka arimaydi.

**Sheroz SHUKURALIYEV.**

## XAVFSIZLIK QOIDALARIGA RIOYA QILING!

Joriy yilning 15-noyabr kundan 15-dekabr kuniga qadar yurtimizda "Yong'in xavfsizligi oyli" tadbiri o'tkazildi. Oylikda "O'zmetkombinat" AJ ob'ektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish (OYOXTTEB) bo'limi xodimlari tomonidan kombinatning sex va uchastkalarida yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish hamda yong'inlarning oldini olishga qaratilgan ko'rgazmali uchrashuvlar o'tkazildi.

2023-yil davomida yurtimizda sodir bo'lgan yong'inlarning 77 foizi aholi turar-joylarida sodir bo'lgan. Mana shularni hisobga olib e'tiborsizlik oqibatida turli yong'inlar kelib chiqishining oldini olgan holda siz aziz metallurglardan nosoz elektr uskunalardan foydalanmaslikka, gaz uskunalaridan foydalanganda shamollatish tizimi soz bo'lishiga e'tibor qaratishga,



ochiq olovni hamda yosh bolalarni xonadoningizda nazoratsiz qoldirmaslikni so'raymiz.

Qadrli metallurglar!

Yangi yil bayramida archa bezashda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qiling! Archani uy sharoitida xona ichiga o'rnatayotganda uni bemalol ko'chirish mumkinligiga va eshiklarni to'sib qo'ymasligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Archani tez yonuvchan o'yinchoqlar bilan bezatish, uning pastki qismini paxta bilan qoplash, shuningdek, shamlar bilan bezatish aslo mumkin emas.

**Diyor NOMOZOV,**  
**"O'zmetkombinat" AJ OYOXTTEB**  
**katta inspektori, katta leytenant.**



"O'ZMETKOMBINAT" AJNING 80 YILLIGI OLDIDAN

**ISHLAB CHIQRISH IKKI BARAVARDAN HAM OSHGAN**

O'tgan asrning 70-yillarida O'zbekistonda qurilish hajmi kengayishi bilan metallurgiya sanoati mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj oshdi. Bekobodagi metallurgiya zavodida ishlab chiqarilayotgan prokat mahsulotlari Respublikamizning talabini qondira olmas edi.

Mana shular inobatga olingan holda 1975-yilda Elektr bilan po'lat eritish majmuasining qurilishi boshlandi. 1978-yil fevralida birinchi elektrda eritilgan po'lat olinib, tarix solnomasiga EPESning tug'ilgan kuni tariqasida kiritildi.

Shu yilning avgust oyidan sexda muntazam elektrda po'lat eritish boshlandi. Yil oxiriga borib EPESning ikkinchi pechi va uzluksiz metall quyish qurilmasi ishga tushdi.

Har qaysi pechning loyiha quvvati 250 ming tonna po'lat eritishga mo'ljallangan bo'lib, yonma-yon qurilgan uzluksiz quyish mashinalarining quvvati esa undan ham ortiqroq edi. Ammo bu ikki pech loyiha quvvatlarini o'zlashtira olmagan bo'lsada, eritilgan metallni tayyor mahsulotga aylantirishning iloji yo'q edi. Chunki zavodning eski prokat sexi o'sha paytlarda 300-320 ming tonna prokat mahsuloti tayyorlash qurbiga ega edi, xolos. Shu sabab

EPESda tayyorlangan xomashyo Rossiyaning ulkan zavodlariga jo'natilardi.

Kompleks qurish loyihasi bo'yicha oldinda sexda uchinchi pech, quyish mashinasi bilan, 1 million tonnadan oshiqroq metallni tayyor mahsulotga aylantiradigan qudratli yangi prokat sexi qurilishi turar edi. Albatta, bu ikki yirik sexni maromida ishlatish uchun bir necha yordamchi

xo'jaliklar qurilishi olib boriladi. Ta'mirlash-mexanika, elektr tarmoqlari, podstansiyalar, energetika, temir-tersakni tayyorlash sexlari ishga tushiriladi.

1984-yil 30-iyun kuni yangi prokat sexi ishga tushdi. Shu kuni birinchi mahsulot olindi. Yuqorida aytib o'tilgan EPESda tayyorlanayotgan xomashyo endi o'zimizda tayyor mahsulotga aylantiriladigan bo'ldi.

1978-yilda zavodimizda 336,8 ming tonna po'lat eritilib, 366,7 ming tonna prokat mahsulotlari ishlab chiqarilgan edi. 1985-yilda esa 839,3 ming tonna po'lat eritildi, 755,2 ming tonna prokat mahsulotlari tayyorlandi.

Shu davrda bekobodlik metallurglar zimmlariga yuklangan ulkan vazifalarni sharaf bilan bajardilar. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish ikki baravardan ham ko'p oshishi bilan birga iqtisodiy tomondan zavod keskin yuksalishga erishdi.

Ismat DIYOROV.

**Suratda: 1984-yil 30-iyun kuni yangi prokat sexi ishga tushdi.**

**KORRUPSIYA****DAVLAT VA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TAHDID**

Barchamizga ma'lumki, korrupsiya jamiyat hayotining barcha jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatib, nizolar va beqarorlik bilan chambarchas bog'lanib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga xavf tug'diradi, demokratik institutlar va qonun ustuvorligiga putur yetkazadi. Bugungi kunda davlat va jamiyat taraqqiyotiga tahdid qilayotgan korrupsiya xavfining oldini olish va unga qarshi kurashish borasidagi respublikamizda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda.

**KATTA E'TIBOR QARATILMOQDA**

"O'zmetkombinat" AJda ham korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashga katta e'tibor qaratilmoqda. Kombinatning Komplaens xizmati va Xodimlarni boshqarish departamenti tomonidan "O'zmetkombinat" AJning "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimiga oid ma'lumotlar" va "Korrupsiyaga oid ma'lumotlar qo'llanmasi" hamda "Korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa qoidabuzarliklarni oldini olish yo'nalishida tarkibiy va hududiy bo'linmalarining majburiyatlari" maxsus o'quv kurs dasturlari va "Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini tashkil etish va korrupsiyaning oldini olish asoslari" malaka oshirish o'quv kurs dasturlari ishlab chiqildi.

Zamonaviy tajribalarga asoslanib kombinatda vijdotsiz pudratchilar, kontragentlar yoki xodimlar tufayli yo'qotishlar va asossiz xarajatlardan qochish maqsadida korporativ firibgarliklarni tekshirish va insofsiz xodimlarni fosh qilish bilan shug'ullanuvchi "forenzik" yo'nalishidagi mutaxassislarni tayyorlash va malakalarini muntazam ravishda oshirib borish ishlari olib borilmoqda.

**TURLI CHORA-TADBIRLAR AMALGA OSHIRILMOQDA**

Kombinatda ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish, korxonada resurslaridan foydalanishni optimallashtirish, inson omili bilan bog'liq korrupsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi kabi holatlarni kamaytirish maqsadida barcha ishlab chiqarish va xarid jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish ishlari jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishchi-xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlat va jamiyat

hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, korrupsiyaga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash kabi chora-tadbirlar orqali amalga oshirilmoqda.



**"OCHIQ ESHIKLAR KUNI" O'TKAZILDI**

Metallurglar madaniyat saroyida Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuniga bag'ishlab "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazildi.

Ushbu tadbirda "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisining transformatsiya bo'yicha birinchi o'rinbosari - rivojlanish va sifat bo'yicha direktor S. Madiyarov, Bekobod shahar hokimi maslahatchisi U. Abdunazarov, Bekobod shahar prokurori o'rinbosari Sh. Karimov, Jinoyat va ma'muriy ishlar bo'yicha Bekobod shahar sudining raisi X. Xoliqov, Bekobod shahar ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosari J. Haydarov, Bekobod shahar Adliya bo'limi boshlig'i X. Bibayev, "O'zmetkombinat" AJ Korporativ xavfsizlik va



resurslarni himoya qilish departamenti yetakchi mutaxassisi D. Say, "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Komplaens xizmati menejeri G. Nurmatov, Xodimlarni boshqarish departamenti direktori o'rinbosari Sh. Mirbabayeva hamda Matbuot xizmati rahbari S. Sheraliyevlar so'zga chiqishdi. Ularning korrupsiyaning naqadar yomon illatligi, jamiyatimiz rivojlanishiga to'siq bo'lishi, unga qarshi kurashish barchaning birdek burchi va vazifasi ekanligi haqidagi ma'ruzalari tinglandi.

Kombinatda xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish uchun ochiq va shaffof tanlov tizimi yaratilib, sodir bo'lgan qoidabuzarliklar to'g'risida xabar berishga tayyor bo'lgan shaxslardan tashabbus xabarlarini qabul qilish uchun "ishonch telefonlari" ishga tushirildi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurash maqsadlariga faqat jinoyat-huquqiy vositalar bilan erishib bo'lmastligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Bunday ma'naviy buzilish holatiga qarshi kurashda nafaqat davlat organlari, balki, jamiyat va umuman barcha fuqarolarimiz mas'uldirlar. Shunday ekan, davlat va jamiyat, har bir fuqaro bunday illatning oldini olish va unga qarshi kurashda birgalikdagi harakatigina samarali natijalarga erishishning eng maqbul yo'li bo'lib hisoblanadi.

Sarvinoz SHERALIYEVA.



# MA'NAVIYAT NIMAGA KERAK?

## JAMIYAT HAYOTINING JONI VA RUHI

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Prezidentimiz aytganidek, biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyat. Mana shu jumlaning o'zida ma'naviyatning jamiyatdagi o'rni nima ekanligi aniq belgilab berilgan.

Bugun biz jadal sur'atlar bilan o'sib kelayotgan yangi axborot-texnologiyalar asrida yashayapmiz. Dunyoda kechayotgan globallashuv jara-yonining o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar manfaatlariga ham xizmat qilayotganini inkor etib bo'lmaydi.

Informatsion vositalarning yuksak rivojlanishi natijasida internet, uyali telefon, telekommunikatsiyalar va turli axborot nashrlar orqali taklif etilayotgan "qadriyatlar" ko'p hollarda yoshlarimizni o'zimizning milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib qo'yimoqda, o'z tarixiy ildizlaridan uzoqlashuviga olib kelmoqda.

"Ommaviy madaniyat" turli xil ko'rinishlarining yoshlar orasida tobora keng tarqalishi yoshlarimizda individualizm, egotsentrizm, andishasizlik, behayolik va zo'ravonlik, milliy qadriyatlarga va ijtimoiy manfaatlariga bepisandlik bilan munosabatda bo'lish kabi illatlarni keltirib chiqarmoqda.

Ba'zi siyosiy kuchlar milliy qadriyatlarimizga zid bo'lgan mana shunday qarashlar orqali aholi, ayniqsa, yoshlar ongini egallashga harakat qiladi. Turli mamlakatlarni mafkuraviy zabt etish g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan uyg'unlashib ketgan.



Kitob – ma'naviyat beshigi

Hozirgi kunda yoshlarimizning ongini zaharlayotgan tajovuzlar millatimizga qaratilgan jiddiy xavf ekanligi hech kimga sir emas.

Yoshlar orasida taqlidchilik, g'arbona illatlarga ko'r-ko'rona ergashish kabi holatlar ham kuza-tilmoqda. Bunda, xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma'naviy yurish-turish andozalarining kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali



Yoshlarni yot g'oyalardan asraylik!

yoshlarimizning ongini chulg'ab olayotganligini sezish qiyin emas. Oqibatda, yoshlar o'rtasida kitob o'qishdan ko'ra kompyuter o'yinlari oldida vaqtini o'tkazish, mazmunan sayoz bo'lgan turli xil janrdagi filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda.

Yoshlarimiz har xil ko'ngil ochar joylarda, ijtimoiy tarmoqlar orqali hech ikkilanmasdan faxshga, gunohga olib boradigan ko'rsatuvlarni ko'rishi oqibatida o'zlarini ikki dunyolarini xarob qilishayotganini, qolaversa ota-bobolari yuziga oyoq qo'yishayotganini anglab yetishsa foydadan holi bo'lmasdi.

Yoshlarning ongini zaharlab, har xil oqimlarga, jinoyat yo'llariga kirib ketishiga va faxsh ishlarga muhtalo bo'lishiga sababchi bo'layotganlar avvalom bor o'zlarining farzandlari, nabiralari borligini, ularning kelajagini esdan chiqarmasligi lozim bo'ladi.

## MA'NAVIYATLI INSON MAG'ZI TO'Q MEVA

Ma'naviyat biror matoga o'xshab sotib olinadigan yoki sotiladigan buyum emas. Ma'naviyatsiz millatning kelajagi yo'q deb bejizga aytilmagan.

Voyaga yetayotgan farzandlarimizni ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, immoni butun, bir so'z bilan aytganda, kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs sifatida tarbiyalash ozod va

obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishning asosiy shartlaridan biridir.

Kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni turli buzg'unchi toifalarning xurujlaridan asrab-avaylamog'imiz, ulani Vatanga sodiq farzandlar qilib tarbiyalash bunga mas'ul ota-onalarning ham, tarbiyachi-

o'qituvchilarning ham,

mahalla faollarining ham muqaddas burchi bo'lmog'i lozim.

Hattoki iqtisodi baquvvat davlatlarda ham ma'naviyat yo'qolsa bu mamlakatlar ham halokatga mahkum. Shunday ekan ma'naviyat ishlariga panja orasidan qarash yoki unga haybarakalchilik yo'sinida yondoshishni vatanga, xalqqa xiyonat sifatida hisoblash mumkin.

Ma'naviyatli insonni mag'zi to'q mevaga qiyoslash mumkin. Bunday odamlarni yo'ldan ozdirish, maqsaddan qaytarish qiyin. Ular har qanday holatda ham o'zligini unutmaydi, qaysi millatdan ekani yodida turadi.

Biz yangi O'zbekistonni qurish jarayonida fikri komil, nuqtai nazari teran, maqsadi aniq va ertasiga ishonadigan ma'naviyatli insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

**Hasanboy SHOKIROV,**  
kombinat mehnat faxriysi.

## OCHIQ SUD MAJLISIDA

# TALON-TOROJ QILISH OQIBATI

**Davlat va jamoat boyliklari bir shaxsga emas, ko'pchilikka tegishlidir. Shunday ekan, ulardan faqat o'z manfaati yo'lida foydalanish yoki talon-toroj qilish yaxshi oqibatlarga olib kelmasligi, shubhasiz.**

O'tgan oyning 16-kuni ochiq sud majlisida "O'zmetkombinat" AJ ishchisi Ali Omonovning (ism-shariflar o'zgartirilgan) ma'muriy ishi ko'rib chiqildi.

Huquqbuzar 2023-yil 20-oktabr kuni o'ziga birlashtirilgan texnikaning bakidan dizel yoqilg'isini yashirincha to'kib olishni niyat qiladi. Buning uchun qulay fursatni kutadi. Atrofda hech kim ko'rinmagach u rejasini amalga oshirishga kirishadi.

Biroq uning bu rejasini oxirigacha yetmay qoldi. Umumiy qiymati 172 768 so'm 91 tiyin bo'lgan 19,43 litr dizel yoqilg'isini yashirin ravishda olayotgan vaqtida, shu yerda xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilar tomonidan ushlanadi.

Huquqbuzar sudda qilgan ishida chin ko'ngildan pushaymon ekanligi, boshqa bu holat takrorlanmasligiga so'z berdi. U bu ishdan o'ziga tegishli xulosa chiqarib olganligi, xato qilganligini tushunganligini aytib, qilgan ishi uchun kechirim so'radi.



Huquqbuzarning aybi uning sud majlisida bergan iqrorlik ko'rsatuvidan tashqari, surishtiruv organi tomonidan tuzilgan ma'muriy bayonoma, ashyoviy dalilni olish bayonnomasi hamda to'plangan ish hujjatlariga asosan to'liq o'z isbotini topdi.

Sud Ali Omonovga jazo qo'llashda uning aybdorlik darajasini, mulkiy ahvolini, javobgarlikni yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi holatlarini inobatga oldi. O'zbekiston Respublikasi MJtKning Oz miqdorda talon-toroj qilish modda-



sining 1-qismida nazarda tutilgan doirada jarima jazosini qo'llashni lozim deb topdi.

Huquqbuzarga bazaviy hisoblash hajmining 1 baravari miqdorida jarima jazosi qo'llanildi.

Xalqimizning "Ko'za kunda emas, kunida sinadi" degan dono maqoli bor. Bu kabi noqonuniy ishlar bir kun kelib albatta fosh bo'ladi. Mana shunday mayda tashmachilik tufayli jamoada e'tibordan qolib, yuzlari shuvut bo'ladi. Bunday holga tushmaslik uchun boshqalar mulkiga "ko'z olaytirmaslik", o'zgalarga ozor bermaslik lozim.

**Farhod ZOKIROV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha  
Bekobod shahar sudi sudyasi.



**YAROQSIZ MAHSULOT TAYYORLANGANDA ISHCHIGA HAQ BERILADIMI?**

Ishlab chiqarish jarayonida mahsulotlar ba'zan yaroqsiz holatda tayyorlanadi. Bunda ishchilarga mehnatlari uchin pul beriladimi?

**A. Inomov.**

Bu mahsulot kimning aybi bilan yaroqsiz tayyorlanganligiga bog'liq.

Ishlov beriladigan materialdagi yashirin nuqson tufayli paydo bo'lgan yaroqsiz mahsulot uchun, shuningdek xodimning aybisiz



tayyorlangan yaroqsiz mahsulot uchun yaroqli mahsulotlar bilan teng ravishda haq to'lanadi.

Xodimning aybi bilan tayyorlangan qisman yaroqsiz mahsulot uchun mahsulotning yaroqliligi darajasiga qarab kamaytirilgan ishbay baholar bo'yicha haq to'lanadi.

Xodimning aybi bilan tayyorlangan to'liq yaroqsiz mahsulot uchun haq to'lanmaydi. Bu haqda Mehnat Kodeksining 267-moddasida belgilangan.

**PIROTEKNIKA VOSITALARI HAYOT UCHUN XAVFLI!**

Yangi yil bayrami oldidan piroteknika vositalari ko'payib qoladi. Piroteknika savdosi bilan shug'ullanganlar uchun javobgarlik belgilanganmi?

**R. Karimov.**

Haqiqatan ham Yangi yil yaqinlashgani sayin odamlarda piroteknika vositalariga bo'lgan qiziqish kuchayadi. Bu esa, garchi taqiqlangan bo'lsa-da, piroteknika vositalarining savdosining avj olishiga olib keladi. Osoyishtalik, yong'in xavfsizligi va eng avvalo salomatlikka jiddiy xavf tug'diradigan bu turdagi vositalarning zarari va oqibat-lari haqida hamma yaxshi biladi. Shuning uchun ham piroteknika buyumlarining qonunga xilof muomalasi uchun O'zbekiston Res-

publikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi asosida javobgarlik ko'zda tutilgan.

Piroteknika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, joylatish, ulardan foydalanish, xuddi shuningdek, ularni qonunga xilof ravishda O'zbekistonga olib kirish yoki o'tkazish uchun - huquqbuzarlik ashyolarini musodara qilinib, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

Shuningdek, piroteknika vositalari, qurol va uning o'q-dorilari, harbiy maqsaddagi mahsulotlar reklamasiga doir talablarni buzganlik - BHMning 50 baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

**YUVISH, TA'MIRLASH ISHLARINI KIM BAJARADI?**

Xodimlarning shaxsiy himoya vositalarini yuvish, tozalash, ta'mirlash ishlari kim tomonidan qilinadi. Bu haqda qanday qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgan?

**O. Olimov.**

Bu ishlar O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 363-moddasiga asosan amalga oshiriladi. Unga asosan xodimlarning shaxsiy himoya vositalarini olish, saqlash, yuvish, tozalash, ta'mirlash, dezinfeksiya qilish va zararsizlantirish ish beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan normalar bo'yicha sut (shunga teng boshqa oziq-ovqat mahsulotlari), davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun), maxsus kiyimbosh, sanitar kiyimbosh, maxsus poyabzal va boshqa shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan bepul



ta'minlanadi. Bunday ishlarning ro'yxati, beriladigan narsalarning normalari, ta'minot tartibi va shartlari jamoa kelishuvlarida, jamoa shartnomasida, agar ular tuzilmagan bo'lsa, ish beruvchi tomonidan kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishuvga ko'ra qonunchilikda belgilangan normalarlarga muvofiq belgilanadi.

**JARIMANI IXTIYORIY TO'LASHNING ENG UZOQ MUDDATI QANCHA?**

Men shaxsiy mashinamda radarga 660 000 so'm jarimaga tushganman. Hozir menda bu pulni to'lashga imkoniyatim yo'q. Men shu jarimani uzog'i bilan qancha muddatgacha ixtiyoriy to'lashim mumkin?

**S. Rustamov.**

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 332-moddasiga asosan, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun solingan jarimani huquqbuzar jarima solish to'g'risidagi qaror chiqarilgan kundan e'tiboran oltmish kundan kechiktirmay, bunday qaror xususida shikoyat berilgan yoki protest bildirilgan hollarda esa, shikoyat yoki protest qanoatlantirilmay qoldirilganligi to'g'risida xabar berilgan kundan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay to'lashi kerakligi belgilangan.

Ya'ni, Siz avtomashinangizda jarimaga tushgan kuningizdan boshlab Sizda jarimani to'lash uchun 60 kun yoki menga jarima noto'g'ri qo'llangan deb tegishli



joyga shikoyat arizasi bersangiz va o'sha arizangiz qanoatlantirilmasa, arizangiz qanoatlantirilmadi deb Sizga xabar berilgan kundan boshlab 30 kun jarimani to'lash uchun Sizda ixtiyoriy muddat bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilgan muddatlarning so'ngi kuniga qadar jarimangiz borligi sababli avtomashinangizni jarima maydoniga olib kirish mumkin emas.

**AVVAL QAYSI TA'TILGA CHIQUAMAN?**

Dekret ta'tiliga chiqishimga yaqin vaqt qoldi. Shu bilan birga mehnat ta'tilim vaqti ham keldi. Avval ta'tilga chiqamanmi yoki dekretgami. Buni o'z xohishim bilan belgilasam bo'ladimi?

**K. Azizova.**

Homilador ayollarga va bola tuqqan ayollarga yillik ta'tillar, ularning xohishiga ko'ra, tegishli homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin yoxud bolani parvarishlash ta'tilidan keyin beriladi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksiga asosan xodimlar homiladorlik va tug'ish ta'tilining muddati boshlanganda har yilgi mehnat ta'tilini



uzaytirish yoki boshqa muddatga ko'chirish huquqiga ega.

Demak mana shu qoidadan kelib chiqsak, hozir boshlangan navbatdagi ish yilingiz uchun mehnat ta'tilini istasangiz, homiladorlik va tug'ish ta'tili (dekret)dan oldin, istasangiz undan keyin olishga haqlisiz.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.



## QISHDA NEGA YUQUMLI KASALLIKLAR AVJ OLADI?

Viruslar sovuq va quruq havoda faollashadi. To'g'ri, qish faslida atmosferada namlik nisbatan yuqori bo'ladi. Biroq xonalar isitilishi sababli havo quruqlashadi. Bu esa infeksiyalarning avj olishi uchun qulay muhit.

Qolaversa, patogenlar toza havoni yoqtirmaydi. Ammo sovuq kunlarda eshik va derazalar zich yopilib, xonalar havosi tez-tez almashtirilmaydi. Odamlar asosiy vaqtini issiq sharoitda, bir necha kishi yoki ko'pchilik bir joyda jamlanib o'tkazadi. Viruslar esa yopiq bino-inshootlar, aholi gavjum joylarda tezroq tarqaladi.

Bundan tashqari, kamharakatlilik ham organizmning kasalliklarga kurashish qobiliyatini susaytiradi. Oqibatda shamollash va grippga chalinish ehtimoli oshadi.

Shamollash va gripp bir-biriga o'xshash kasalliklar.

Shamollash – ayniqsa, sovuq mavsumda eng keng tarqalgan kasalliklardan biridir. Bunga



asosan yuqori nafas yo'llari (burun, tomoq, traxeya)ga ta'sir ko'rsatadigan virusli infeksiya sabab bo'ladi. Noto'g'ri davolanish yoki kasallikni o'tkazib yuborish pnevmoniya yoki bronxitga sabab bo'lishi mumkin.

Gripp – bu o'ta yuqumli mavsumiy nafas olish yo'llari kasalligi bo'lib, odatda dekabr va mart oylari orasida ro'y beradi, fevral oyida eng yuqori

darajaga ko'tariladi.

Ushbu ikki kasallik shamollash va gripp ba'zan bir-biri bilan adashtiriladi, chunki ularning alomatlari juda o'xshash. Ammo bu noto'g'ri.

Grippning birinchi alomatlaridan biri – bu ko'z qizarishi, umumiy holsizlanish. Keyingi alomatlari – tana harorati 38 darajadan oshishi. Grippda oddiy shamollashdan farqli o'laroq, yuqori harorat uzoq vaqt davom etadi va ko'pincha haroratni tushiradigan dorilarni qabul qilgan taqdirda ham me'yoriga kelmaydi.

Bundan tashqari, gripp bilan kasallangan bemorlarda ko'zning qizarishi, "ko'krak qafasi" yo'tali, mushaklar og'rig'i va burundagi qon tomir devorlarining yupqalashishi tufayli qon ketishi kuzatiladi.

Shamollash alomatlari har xil. Tomoq og'rig'i, ovoz bo'g'ilishi, bosh og'rig'i, limfa tugunlari kattalashishi, ko'ngil aynish va yo'tal paydo bo'lishi mumkin.

## ANTIBIOTIKLARDAN SAQLANING!



### Antibiotics

Grippda suvsizlanishdan saqlanish uchun ko'p suyuqlik ichish juda muhim (va ko'p hollarda bu asosiy davolash usulidir). Boshqa chora-tadbirlar kasallik alomatlarini yengillashtiradigan dorilarni (harorat tushiruvchilar, burun tomchilari – preylari va boshqalar) o'z ichiga oladi.

Virusga qarshi dorilar mavjud, ammo ularni faqat shifokor ko'rsatmasi bo'yicha olish kerak. Shuni yodda tutish kerakki, gripp virusining ko'p dorilarga nisbatan qarshiligi allaqachon mavjud va shuning uchun uni davolashdan ko'ra kasallikning oldini olish bilan shug'ullanish yaxshiroqdir.

Shamollaganda ko'pincha uy sharoitida davolanishga o'rganganmiz. Lekin bilib-bilmasdan turib bemorga turli antibiotiklar berish yoki in'eksiyalar qilish umuman noto'g'ri. Ba'zi shifokorlar ham shunday vaziyatda antibiotik qabul qilishni buyurishadi. Bu davolash chorasini noto'g'ri. Antibiotiklar odatda bakteriyalar sabab bo'lgan kasalliklarni davolash uchun ishlatiladi. Shamollash va grippda ulardan foydalanish kerak emas.

Kasallik boshlanishining dastlabki kunlarida organizmda tabiiy immunitet reaksiyasi paydo bo'ladi, antibiotikni juda erta ishlatganda esa, o'z-o'zidan infeksiyani boshqarishi mumkin bo'lgan himoya mexanizmlari yo'q qilinadi.

Shamollash 99 foiz holatlarda viruslar orqali kelib chiqadi. Shuning uchun gripp va shamollash paytida antibiotiklardan saqlanish yaxshiroqdir. Ular faqat bakterial infeksiya tashxisida samarali bo'ladi.

Har qanday, inson uchun eng oddiy tuyulgan kasallikni davolashda ham, birinchi navbatda, shifokorga murojaat qilish va dorilardan uning retseptiga asosan foydalanish – davolanishning eng to'g'ri va samarali uslubi bo'ladi.



## KASALLIKDAN HIMOYALANISH

Infeksion va o'tkir respiratorli kasalliklar mavsumida immunitetni mustahkamlash va gigiena qoidalariga rioya qilish zarur. Infeksiya va viruslar havo tomchi yo'li orqali yuqqani bois ham mazkur tavsiyaga amal qilish shart.

**Qo'llaringizni tez-tez yuvib turing.** Mutaxassislar tomonidan qo'llar tez-tez sovun bilan yuvib turilishi yoki sanitayzerdan foydalanish tavsiya qilinadi.

**Yuzingizga teginmang.** Yuvilmagan qo'llarda virus bo'lishi va qo'lni yuzga olib borganda organizmga kirishi mumkin.

**Tiniqib uxlang.** Tiniqib uxlaganda immun sistemasi yaxshi ishlaydi.

**Grippga qarshi emlaning.** Mutaxassislar vaqtida mazkur kasallikka qarshi emlanish kerakligini tavsiya qiladi.

**Meva va sabzavotlarni iste'mol qiling.** Immunitetni mustahkamlash uchun sabzavot va mevalarni kanda qilmaslik tavsiya etiladi.

**Sport bilan shug'ullaning.** Buning uchun og'ir mashqlarni bajarishga hojat yo'q. Shunchaki har kuni toza havoda sayr qilsangiz ham bo'ladi.

**Bemorlar bilan ijtimoiy masofa saqlang.** Bemor insonlarga iloji boricha yaqin bormaslikka harakat qiling.

**Taom va ichimlikni shaxsiy idishingizda iste'mol qiling.** Doim ishlatishdan avval qaynoq suvga chayib, keyin ishlatangiz.

**Xudbin bo'lmang.** Shamollagan yoki kasallangan bo'lsangiz, uydan chiqmang. O'zingizni yaxshi his qilsangiz ham, niqob taqib yuring, aksirmoqchi bo'lsangiz, niqob bo'lmasa atrofdagilarga virus tarqatmaslik uchun chetga qarab, tirsakning ichki qismi bilan og'zingizni yoping.

## ENG SAMARALI VOSITA

Ulug' bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino tavsiyalari-ga ko'ra eng samarali vosita, oddiy choyingizni issiq "Zanjabil bilan asal" ichimligiga almashtiring. Stakandagi issiq qaynagan suvga 1 paket "Zanjabil bilan asal" ekstraktini eriting va yoqimli, foydali ichimlikdan bahramand bo'ling.

Zanjabil, ayniqsa, kaliy, fosfor va vitamin S ga boy, bu moddalar immunitetni mustahkamlashda, gripp va shamollash viruslariga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ichimlik shamollash va grippni birinchi belgilarda tabiiy davolash va profilaktika vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan zararsiz mahalliy mahsulotdir.

## FOYDALI MAHSULOTLAR

Sog'liqni saqlash vazirligi shamollash va grippda qaysi mahsulotlar ko'proq foydali ekanini haqida ma'lumot berdi.

**Limon.** Uni maydalab, biroz shakar qo'shib kun davomida uch martagacha bir choy qoshiqchadan iste'mol qilish immunitetni mustahkamlashda samara beradi.

**Na'matak.** Na'matak sharbati, mevalaridan choy damlab ichish juda foydali.

**Tuzlangan karam.** Tuzlangan karamga biroz zaytun moyi va mayda to'g'ralgan boshpiyoz qo'shib iste'mol qilish koni foyda.

**Piyoz.** Piyoz tabiiy antibiotik hisoblanadi.

**Sarimsoq.** Shamollash va virusdan asraydi.

**Tvorog.** Uy sharoitida tayyorlangan tvorog o'ta foydali.

**Tuxum.** Qaynatilgan tuxum tarkibida turli xil foydali vitaminlar bo'ladi.

Ushbu mahsulotlarni sevib iste'mol qiluvchilarning kasallikka chidamliligi yuqori bo'ladi, kasallikka chalinganda ham uni yengib o'tishi immun tizimi uchun nisbatan oson kechadi.



## MEHNPATGA BAXSHIDA UMR...

Mirzaburxon Do'smurodovni bekobodlik metallurglar yaxshi biladi. U kishining aksariyati tanqidiy va tahliliy ko'plab maqolalari gazetamizda chop etilgan. "Metallurg" sport-sog'lomlashtirish markazi shifokori Mirzaburxon aka nafaqat Bekobod, balki mamlakatimiz futbol rivoji yo'lida o'zining kuyunchaklik bilan yozgan maqolalari bilan respublikamizda ham taniqli, tajribali mutaxassislardan hisoblanadi.

**Yaqinda Mirzaburxon Do'smurodov qutlug' 75 yoshga to'ldi.**

Mirzaburxon aka umrini sevgan kasbi - shifokorlikka baxshida etgan inson. Xalqimizning sihat-salamatligini asrash, dardmand kunlari ularning koriga yarash, mushkullarini oson qilishdek savobli ishiga sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan yetuk tibbiyot xodimlaridan. Deyarli har kuni, Mirzaburxon akaning tibbiyot bo'limi patsientlari bilan gavjum bo'ladi. Dilkash va samimiy shifokorning iliq munosabati, otalarcha g'amxo'rliqi, malakali maslahatlari "Metallurg" futbol klubi hamda futbolga ixtisoslashgan bolalar va o'smirlar maktabi xodimlarini, shuningdek, ommaviy sport fidoyilarini u kishining shifo bo'lmasiga chorlab turadi.

Sport tibbiyoti bilimdonlaridan biri Mirzaburxon aka sohadagi boshlang'ich bilimlarni 1967-yili Qo'qon shahridagi tibbiyot bilim yurtida olgan. Harbiy xizmatni (1968-1970) Uzoq



Sharqda o'tab qaytgach, u Andijon Davlat tibbiyot institutining davolash fakultetida (1970-1976) tahsil oldi.

Tibbiyot oliygohini tugallab, ona shahriga qaytgan Mirzaburxon Bekobod shahar Markaziy shifoxonasida ish boshladi. Bir muddat Bekobod tibbiyot bilim yurtida yoshlarga saboq berdi. So'ngra shahar "Tez tibbiy yordam" stansiyasida mehnat qildi. Bekobod sement kombinati poliklinikasida faoliyat yuritdi.

Shifokorlik sohasidagi izlanuvchanligi, sportga, futbolga qiziqishi uni 1993-yilda "Metallurg" futbol klubiga boshlab keldi. Bekobod shahrining bosh jamoasi bilan bir qatorda "O'zmetkombinat"ga qarashli sport-sog'lom-

lashtirish maskanida, Tennis majmuasida jamoatchilik asosida shifokor bo'lib ishladi.

O'z kasbiga sadoqat bilan yondoshib, uning sir-sinoatlarini chuqur o'zlashtirib, tajribasini esa kasbdoshlari bilan o'rtoqlashib kelayotgan mutaxassislardan biri. Fikrimizning isboti tariqasida 2001-yildan buyon u kishi Respublikamizning turli markaziy nashrlarida o'z xulosalarini chop etib kelmoqda. Ayniqsa, sport tibbiyoti yo'nalishidagi dolzarb maqolalari "O'zbekiston futbol", "Futbol ekspress", "Asr futbol", "Interfutbol", "Toshkent haqiqati", "Hurriyat", "Ma'rifat", "Milliy tiklanish", "Vatanparvar", "XXI asr", "Fidokor", "Ishonch", "Huquq", "O'zbekiston ovozi", "Erudit-sport", "Jamiyat", "Chempion", "Adolat ko'zgusi", "Metallurg minbari", "Bekobod ishchisi" kabi OAV nashrlarida chop etildi. Keng jamoatchilik hamda soha xodimlari muhokamasiga tashlandi.

"Metallurg" professional futbol klubi rahbariyati, klub ma'muriyati va ahil jamoasi va tahririyatimiz Mirzaburxon akani qutlug' 75 yoshi bilan samimiy tabriklaymiz. U kishiga mustahkam sog'lik, salomatlik, oilaviy tinchlik, farovonlik tilaymiz. Farzandlari, nevara, chevaralari davrasida uzoq yillar rohat-farog'atda umrguzaronlik qilib, boy malaka va tajribalarini yosh tibbiyot xodimlariga, shogirdlariga ulashib yurishini istaymiz.

## "METALLURG" SUPERLIGADAGI O'RNINI SAQLAB QOLDI

Mamlakat XXXII milliy chempionatining so'nggi turidan oldingi o'yinni safarda - Toshkentda "Bunyodkor"ga qarshi o'tkazgan "Metallurg" jamoamiz aksariyat jabhalarda mezbonlardan ustunlik ega bo'lgan ersa-da, alamli mag'lubiyatni qabul qilib oldi. Shu turda Farg'ona shahrida "Neftchi" - "Qizilqum" uchrashuvi bekobodlik muxlislar va futbolchilar uchun alohida ahamiyat kasb etar edi. Bu o'yinda mezbonlarning g'alabasi bekobodliklarning mavsum yakuniga yetishiga bir tur qolganida Superligadagi o'rnini saqlab qolishiga yordam berdi.

Superligada mavsumning oxirgi turi o'yinlari ham o'tkazildi. "Metallurg" Toshkent shahridagi JAR stadionida "Olimpik"ni mag'lubiyatga uchratdi.

O'yinning 10-daqiqasida Husniddin G'ofurov to'pni boshi bilan urib, darvoza to'riga tushirdi - 1:0. Ikkinchi taymda Husniddin ikkinchi to'pni raqib darvozasiga kiritdi - 2:0. O'yin tugashi arafasida olimpiyachilar bitta javob golini kiritishdi. Ammo bundan ortig'iga ularning kuchi yetmadi - 2:1.



### MUSOBAQANING YAKUNIY JADVALI

No	Jamoalar	O'	Yu	D	M	T-N	O
1	"PAXTAKOR"	26	16	5	5	41-25	53
2	"NASAF"	26	13	9	4	31-16	48
3	"NAVBAHOR"	26	14	5	7	44-19	47
4	OKMK	26	13	7	6	43-34	46
5	"NEFTCHI"	26	11	12	3	33-18	45
6	"SURXON"	26	11	7	8	28-24	40
7	"ANDIJON"	26	12	4	10	27-25	40
8	"BUNYODKOR"	26	10	7	9	30-33	37
9	"OLIMPIK"	26	8	7	11	26-32	31
10	"METALLURG"	26	8	6	12	26-35	30
11	"SO'G'DIYONA"	26	7	6	13	29-38	27
12	"QIZILQUM"	26	6	7	13	22-33	25
13	"TURON"	26	3	7	16	16-41	16
14	"BUXORO"	26	4	3	19	12-35	15



## AYOLLAR FUTBOLI: OLIY LIGA

### KUTILMAGAN YAKUN

Ayollar o'rtasida O'zbekiston oliy ligasida ham mavsum yakunlandi. Kuchlilar ligasida qatnashgan jami 10 ta jamoa o'rtasida avval ikki davra o'yinlari o'tkazildi. Bu musobaqada oldingi 5 o'rinni egallagan jamoalar "Sevinch", "So'g'diyona - W", "Bunyodkor - W", OKMK - W, "Lokomotiv - W" "A" guruhida sovrinli o'rinlar uchun kurash olib borishdi.

Oliy liganing "V" guruhida esa oliy ligada 6-10-o'rinlar uchun "Qizilqum - W", "Paxtakor - W", "Neftchi - W", "Buxoro - W" hamda "Metallurg - W" jamoalari kuch sinashdilar.

Kuchlilar o'rtasida "Sevinch" futbolchilariga teng keladiganlar topilmadi. Ular mavsum mobaynida o'tkazilgan jami 22 o'yinda ham barcha raqibalarini yengib faqat g'alaba qozondilar.

Mavsumda 66 ochko jamg'argan "Sevinch" O'zbekiston chempionligini va oltin medalni qo'lga kiritdi. "So'g'diyona-W" kumush, OKMK - W jamoasi bronza medaliga ega chiqdi.

"Metallurg - W" jamoasi bu mavsum oliy ligada juda yomon ko'rsatkichni qayd etdi. Jamoa musobaqa jadvalida so'nggi o'rindan joy oldi. 22 o'yinning barchasida mag'lubiyatga uchradi. Bu o'yinlarda raqib darvozasiga 2 ta to'p kiritilib, o'z darvozasidan 192 ta to'p o'tkazib yuborildi. "Metallurg - W" kuchlilar safini tark etib birinchi ligaga ravona bo'ldi.



## SAVOB

Kambag'al ekanligi ko'rinishidan tayin bo'lgan kishi oziq-ovqat sotiladigan do'konga keldi. U oi-lasi uchun zarur bo'ladigan eng arzon mahsulotlarni so'radi. U:

- Yangangiz ro'yxatida 5 litrli paxta yog'i, 5 kilogrammdan un, guruch, makaron, 1 kilogramm go'sht olishim kerakligi yozilgan. Biroq yonimda 100 ming so'mim bor - deb, sotuvchiga shunga yarashasini berishini so'radi.

Do'kondor:

- Bugun do'konimizda oziq-ovqat mahsulotlari chegirma bilan sotilyapti. Lekin sifatleri yaxshi. Buning ustiga 100 ming so'mlik mahsulot olganlarga yana shunchasi tekinga beriladi, - dedi.

Faqir kishi ro'yxat bo'yicha olishi kerak bo'lganlardan ikki baravar ko'p mahsulotlarni hadiyadek olayotganiga juda xursand bo'ldi. U ketarkan, Alloh o'nglagani uchun ko'zlaridan quvonch yoshlari to'kilardi. U

uzoqlashib bo'lgandan keyin, voqea guvohi bo'lgan do'kondorning do's-ti so'radi:

- Sen 600 ming so'mdan oshiq bu mahsulotlarni nega 100 ming so'mga berib yubording? - dedi.

- Allohga qasam, aziz do'stim, savob ish qilishni niyat qilib shu narxga sotdim. Men Robbim bilan savdolashdim, do'stim. Uning rizo-sini istab, miskin kishi va oilasi oziq-ovqatga muhtoj bo'lganligi-ni bilganim uchun shunday qildim. Shoyad shu bilan Robbim meni jahannamdan asrasa. Agar u kishi-ning izzat nafsiga tegmasa, bekorga berib yuborardim, - dedi do'kondor.



## TAFAKKUR QIL

## TABASSUM QILING!

Miya faoliyati bevosita tana-miz bilan bog'liqligini bilasiz-a? Bir bor kuldingizmi, miyaga "Siz baxtlisiz!" degan xabar borib tushadi. Natijada organizm turli xil endorfinlarni ishlab chiqara boshlaydi va o'z-o'zidan kayfi-yatingiz ko'tariladi. Bu haqiqat 1980-yilda aniqlanib, ilmiy tas-dig'ini topgan.



## QISQA HIKOYALAR

### QO'RQUV

- Pora olgan kunim uyga borgu-nimga qadar yuragim uvishadi.

- Vijdoning qiynalarkan-da...

- Yo'q, uyushtirilmaganmi, deb hadiksirayman...

**Bobur NUSRATOV.**

### DUO

Qari kampir og'ir sumkani qiynalib ko'tarib kelayotgan edi. O'sha yerda o'ynab yurgan bir yetim bola kampirni ko'rib, unga sumkani ko'tarishga yordam

berdi. Manzilga yetgandan so'ng "Senga tarbiya bergan ota-onang-dan Alloh rozi bo'lsin" deb duo qildi va yo'lida davom etdi. Yetim bolaning duoga ko'tarilgan qo'li havoda muallaq turib qoldi...

**Islombek MIRZAQULOV.**

### ULG'AYISH

- Ulg'ayishni istamayman!

- Nega?

- Chunki... Ota-onam qarib boryapti.

**Ma'ruf MENGLI.**

## BILIMINGIZNI SINANG!



Iskandar Zulqarnayn-ning O'rta Osiyoga yur-ishiga guvoh bo'lganlar-dan ikkitasi hozir ham tirik ekan. Ular haqida bilasizmi?

\*\*\*

Bir necha ming yil-lardan hozirga qadar odamzot xizmatini qilayotgan yagona jonivor bor. Uning nomi nima?

\*\*\*

Dunyodagi eng qadimiy va hozirgacha faoliyat yuritib kelayotgan o'quv dargohi - universitet Gin-nesning rekordlar kitobi-ga kiritilgan. U qachondan buyon faoliyat ko'rsatadi va qaysi mamlakatda joy-lashgan?

\*\*\*

Norvegiya maktablari-da o'quvchilarga 8-sinf-gacha qanday baholar qo'yiladi?

100 gramm asal yig'ish uchun asarlari qancha masofani bosib o'tadi?

**Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.**

**Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.**

Talat, qozoq, quduq, kiyik.

\*\*\*

840 litr suv oqishi mumkin.

\*\*\*

Kivi qanoti bo'lmagan dunyodagi yagona qush.

\*\*\*

Yaponlar oylarni raqam-lar bilan belgilaydilar. Masalan, dekabr oyi - o'n ikkinchi oy deb ataladi.

\*\*\*

Telefon kashfiyotchisi Aleksandr Bellning onasi va xotini gung bo'lishgan.

## ADOLAT

Badavlat odam aytmoqda:

- Pul juda ko'payib ketsa, oldinlari lazzat bergan narsalarning qizig'i qolmas ekan, odam yangicha narsalar izlarkan. Masalan, bir paytlar oddiy perashka yoki gumba yeb ham maza qilardim. Hozir faqat tushlik qilish uchun Istanbulga borolaman, ammo o'sha oddiy lazzatni topmayman.

Inson qurbi yetadigan va bemalol erisho-ladigan narsaga qiziqishi qolmas ekan. Allohning adolatini qarangki, boylar besh yulduzli Michelin markali restoranda topol-magan lazzatni kambag'allar oddiy somsa yeb undan ko'proq lazzatlanadi. Hammasi bir birini balans qilib yuborarkan.

**Faizdin MO'MIN.**

## YANGI YIL XANDALARI

Bir kishi og'aynilari bilan yangi yilni bay-ram qilibdi va rosa ichib, uyiga mast holat-da kech qaytibdi. Qarasa xotini uxlayapti. U erining kech kelganini bilmabdi ham.

Er noutbukini ochib o'zini ishlatayotgan-ga solibdi.

Xotini shovqinda uyg'onib eriga:

- Nima ichib keldingizmi?

Er:

- Yo'q, oyisi ertaga juda muhim ish bor shuni yozayapman!

Xotini:

- Yolg'on gapirmang, alkash chemodanni yopib tezda uxlang.

\*\*\*

Mehmonlar Yangi yil dasturxon-i ustida o'tirib qolib, hech biri uyiga ketishni o'ylamas ham edi.

Uy bekasi nima qilishini bilmay halak. Haydab bo'lmasa... Shu vaqt telefon jiring-lab qolibdi. Go'shakni ko'tara turib, ayol-ning kallasiga bir fikr kelibdi.

- Yong'in! Yong'in!!!

Mehmonlar bir ovozdan:

- Kimmikida?

- Eshitilmay qoldim! Qaysidir biringizni-kida!



- Yangi yilni qanday kutib olding?

- Bilmadim, hali menga aytib berishma-di...

\*\*\*

Yangi yilni nishonlab tongga yaqin bir ahvolda uyga kirib kelgan erni xotini

kutib olibdi.

- Yuzimga qarashga endi qanday chiday-siz? - debdi xotini.

Er bo'lsa unga:

- Hechqisi yo'q onasi, shuncha yil chidab kelyapman, bu yog'i ham qarayveraman, - dermish.